

# XALQ TA'LIMI

---

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

6

(noyabr-dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X T	TAHRIRIYAT
	4
	<b>TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI</b>
R. Djurayev	6 Mustaqil o'zbekistonda ma'naviy-axloqiy g'oyalarning rivoji
M. Inoyatova	11 O'quv jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish
F. Karimova	16 Pedagogning axborot muhitida rivojlantirish muammolarini va axborot kompetenligi mazmuni
H. Begimqulov	20 Innovatsion faoliyatni takomillashtirish asosida o'qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish mazmuni
M. Umaraliyeva	25 Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda o'qituvchi kompetensiyasi
U. Mahkamov	29 Talabalarda mustaqil ta'lif jarayonida kreativ fikrlash malakalarini shakllantirish
	<b>TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI</b>
J. Xusanov	33 Geometriya fanidan uslubiy ishlasmalar tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi
N. Shamsiddinov	36 Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari
B. Quvonov	41 Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish yo'llari
R. Safarova	45 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy masalalar yordamida matematik tafakkurni shakllantirish xususiyatlarini o'rganish
M. Xaydarova	49 O'rta tibbiy ta'lifni kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi
K. Karimova	53 Bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari va texnologiyalar
N. Akbarova	59 Xorijiy til o'qituvchilarida deontologiya va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari
	<b>TA'LIM SIFATI</b>
N. Karimova	63 Professional ta'lilda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini baholash mezonlari
F. Abdullayev	68 Tabiiy fan (science) bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash yondashuvlari
	<b>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI</b>
F. Berdibekova	75 Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tarbiya darsini tashkil etishni o'rgatish texnologiyasi
Z. Boymurodova	80 Oilada bolalarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'rni

---

**Malika XAYDAROVA,**

Buxoro davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasи

## **BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNI TATBIQ ETISH YO‘LLARI**

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish haqida fikr yuritilgan bo‘lib, unda individual yondashuv muammosiga nisbatan nazariy qarashlarning vujudga kelishi va taraqqiy etishi, boshlang‘ich ta’lim jarayonida individual yondashuvni tatbiq etishning asosiy belgilari, strategiyalari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar.** Individual yondashuv, individuallashtirilgan ta’lim, tabaqalashtirilgan ta’lim, o‘quv materiali, pedagogik shakllar, metodlar, mustaqil ish, topshiriq, aqliy qobiliyat, qiziqish.

В данной статье рассматривается применение индивидуализированного подхода к процессу начального образования, в котором описывается возникновение и развитие теоретических подходов к проблеме индивидуальных подходов, а также основные особенности и стратегии реализации индивидуализированного подхода к начальному образованию.

**Ключевые слова.** Индивидуальный подход, индивидуальное обучение, дифференцированное обучение, учебный материал, педагогические формы, методы, самостоятельная работа, задание, умственные способности, интерес.

This article discusses the application of an individualized approach to the primary education process, which outlines the emergence and development of theoretical approaches to the problem of individual approaches, and the main features and strategies for implementing an individualized approach to primary education.

**Key words.** Individual approach, individualized learning, differentiated learning, learning material, pedagogical forms, methods, independent work, task, mental ability, interest.

**B**ugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari: Avstriyada o‘quvchilarning bilish faoliyatini individual rivojlantirishga asoslangan dasturlar, Germaniyada iqtidorli o‘quvchilarни rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Nemis maktab akademiyasi”, Angliya, Fransiya va AQSh kabi davlatlarda chuqurlashtirilgan maktab hamda tabaqalashtirilgan sinflarda o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF5712-sonli “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi” to‘g‘risidagi Farmonining qabul qilinishi va u asosida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Pedagogika ensiklopediyasida “Individual yondashuv metodi – (lot.individium – bo‘linmas) pedagogik jarayonni o‘quvchining individual o‘ziga xos jihatlari (mijozi, xarakteri, qobiliyati, moyilligi va boshqalar)ni e’tiborga olgan holda amalga oshirish metodi” sifatida talqin etiladi.

Ta’limni individuallashtirish – uni har bir o‘quvchining o‘z individual xususiyatlariiga moslab tashkil etish demakdir. Individuallashtirish deganda, har bir o‘quvchining

individual-psixologik xususiyatlarını hisobga oladigan o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini boshqarish tizimi tushuniladi. Ta'lif jarayonida o'quvchilarning individual tayyorgarliklarini ta'minlashda ularning layoqatlarini alohida e'tiborga olish lozim. Agar o'quvchi o'z tayyorgarligi davomida faol harakat qilmasa, uning layoqati tashqi ta'sir va sharoitlar natijasida o'z-o'zidan qobiliyatga aylanmaydi.

Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish zamonaviy ta'lif tizimini takomillashtirish yo'llaridan biridir. Individual yondashuvning ahamiyati shundaki, o'quvchi ta'lif jarayonining asosiy subyekti sifatida o'qituvchi hamda o'quv materiallari bilan muloqotga kirishadi. Bu o'z navbatida, shaxsning ijobiy fazilatlarini aniqlash; shaxsni muntazam psixologik-pedagogik tashxislash; ta'lif-tarbiya jarayonida shaxs xususiyatlarini hisobga olish; shaxs rivojlanishini bashorat etish va boshqalarni qamrab oladi.

Individual yondashuv bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo'lgan tabiiy moyilliklarini to'liq e'tiborga olish imkoniyatini ta'minlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv ta'lif shakllarining eng qadimiysi bo'lib, u qadimgi davr va o'rta asrlarda ham keng qo'llanilgan. Uning samarasи, ayniqsa, amaliy san'at, hunarmandchilikda ustoz-shogird ta'lifi tarzida namoyon bo'lgan.

Hozirda jahon ta'lif tizimida individuallashtirish va tabaqalashtirish tushunchalari keng ko'lamda tatbiq etilmoqda. Bunday yondashuv o'zbek xalqi ta'lif tizimida asrlar davomida mavjud bo'lgan. O'tmisda maktabxonalar ayniqsa, madrasalarda ta'lif oluvtchilarga alohida yondashilgan holda, ularning qiziqishlari va intilishlarini hisobga olib ta'lif-tarbiya berilgan. Har bir ta'lif oluvchining muayyan mavzuni bilish imkoniyatlari va o'zlashtirish darajalari aniqlangandan keyingina unga navbatdagи topshiriq berilgan.

Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda uning yo'llari, usullari, o'qitish maromi, o'quvchilarning o'ziga xos farqli jihatlari, ularning rivojlanganlik darajalari va o'qish layoqatlari alohida hisobga olinishi kerak.

Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish quyidagi holat-larga ko'ra amalga oshiriladi:

- o'quvchilar guruhiga xos bo'lgan emas, balki har bir o'quvchiga xos umumiy belgilar hisobga olinadi;
- o'quv jarayoni uchun muhim bo'lgan o'ziga xosliklarga ta'lifni individuallashtirish jarayonida hisobga olinadi;
- aksariyat hollarda ta'lifni individuallashtirish jarayonida o'quvchilarning qobiliyatları va salomatliklariga ham e'tibor qaratiladi;
- o'quv jarayonini individuallashtirish qisman amalga oshiriladi va u umumiyo o'quv vaziyati bilan uyg'unlashtiriladi.

Boshlang'ich ta'lif jarayonida individual yondashuvni tatbiq etishning asosiy belgilarini ajratish muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayonini individuallashtirish uchun o'quvchilarga ko'proq mustaqil topshiriqlar berish lozim. Shu bilan bir qatorda, o'quv jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etilganda darsning tarkibiy tuzilishi ham o'zgaradi. Individual yondashuvda ta'lif jarayoni oldiga bir qator maqsadlar qo'yiladi va bu maqsadlarga erishish uchun o'quv mashg'uloti bir holatdan ikkinchi holatga ko'chiriladi.

Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda quyidagi talablar nazarda tutiladi:

- 1) O'quvchilar faoliyatini umumiy tarzda tashxislovchi, bashoratlovchi, ta'limiyl, bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, shakllantiruvchi, optimallashtiruvchi;

---

2) O'quvchilarni o'ziga xos tarzda moslashtiruvchi, tuzatuvchi va h. k.

O'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqlashtirishga oid turlicha yondashuvlarning mavjudligiga qaramasdan, mutaxassislar quyidagi talqingga ko'proq moyillik bildiradilar:

1) Ta'limdi individuallashtirish – bu o'quv jarayonini tashkil etish, uning yo'llari, usullari, o'qitish maromini tanlashda o'quvchilarning o'ziga xosligi, ularning rivojlanganlik darajasi va o'qish layoqatini hisobga olish demakdir.

2) O'quv jarayonini tabaqlashtirish – o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilarni muayyan o'ziga xos jihatlariga ko'ra alohida o'qitish imkonini beruvchi guruhlarga ajratish demakdir.

O'zbek xalqining tarixiy tajribalarini o'rganish natijalari shuni ko'satmoqdaki, o'qitishning jamoaviy shaklidan ko'ra o'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqlashtirish ko'p jihatdan samaralidir. Shu bilan bir qatorda, o'quv jarayonini individuallashtirish va tabaqlashtirish bo'yicha xorijiy pedagoglarning nazariy yondashuvlari mavjud va ular alohida ahamiyatga molik. Jumladan, AQSh ta'lilmiz tizimida qo'llaniladigan barcha pedagogik shakl va metodlar o'quv jarayoniga o'quvchilarning o'ziga xos xususiyalarini hisobga olgan holda tatbiq etilmoqda.

O'quv jarayonini individuallashtirishning bir qator strategiyalari mavjud. Jumladan:

– o'qitishga bog'liq bo'limgan holda eng kam sonli o'quvchilardan boshlab butun guruh a'zolarining o'ziga xosliklarini hisobga olish;

– ta'limning turli variantlarini ishlab chiqish, jumladan, o'quvchilarga muayyan mavzuni o'rgatish maromi, maqsadlari, metodlari, o'quv materiallari, talab etilgan o'zlashtirilganlik darajalari kabilarni ko'p variantlarda taqdim etish;

– ta'limda individuallashtirishni qo'llash o'rgatiladigan barcha o'quv predmetlari, ularning muayyan qismlari, o'quv kurslari, o'quv materiallari va alohida o'quvchilarga nisbatan amalga oshiriladi. Buning natijasida o'quvchilarning umumiyligi belgilariiga asoslangan holda turli guruhlarni tashkil etish mumkin.

Avstriyada o'quvchilarning bilish faoliyatini individual rivojlantirishga asoslangan dasturlarda o'quvchilarning o'ziga xos layoqatlariga asoslangan holda ularning mustaqil ishlarini takomillashtirishni nazarda tutadilar. Individuallik o'quvchilarning sinfdagi mustaqil ishlar, topshiriqlar, individuallashtirish esa, o'quv topshirig'i har bir o'quvchi uchun uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida-alohida tanlanganda vujudga keladi.

Angliya maktablarida o'quv jarayoni tabaqlashtirish tamoyili asosida tashkil etilgan. O'quvchilar boshlang'ich ta'limga bosqichini o'tagandan keyin uch xil yo'nalishdagi maktablarga bo'linadilar. Ular: grammatik yo'nalishdagi maktablar, zamonaviy o'rta maktablar va texnika sohasidagi o'rta maktablardir. Bu maktablarning har biriga o'quvchilar aqliy qobiliyatlarini va umumiyligi rivojlanish darajalariga ko'ra taqsimlanadilar.

Bugungi kunga kelib ta'limga jarayoniga bo'lgan yondashuvlar tubdan o'zgarmoqda. O'quv jarayoniga individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qibiliyatlarini va qiziqishlariga qarab amalga oshirilmoqda. Ta'limga bosqichlarining har birida o'quv jarayonini individuallashtirish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u o'ta murakkab pedagogik jarayon sifatida tavsiflanadi. Angliya maktablarida ikki turdag'i individuallashtirilgan o'quv jarayoni amal qiladi:

– o'quvchilarning turli guruhlariiga ta'limga berish, bunda ularning layoqatiga bog'liq holda turli darajaga ega bo'lgan turlicha bilimlar taqdim etiladi;

– bir qator o'quv predmetlari va ta'limga sohalaridan chuqurlashtirilgan bilim berish.

Umuman olganda, o'quv jarayonini individuallashtirishning mazkur shakllari qulay bo'lishi bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklarga ham ega. Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda quydagi qulayliklar mavjudligi kuzatildi: o'qitish jarayonida har bir o'quvchining o'ziga xosligini hisobga olish imkoniyati tug'iladi; o'quvchilarning o'quv-biluv jarayoniga bo'lgan qiziqishlari ortadi; mustaqil ishlarning ahamiyati oshadi; individual topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik ko'nikmalari rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'lif jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda quydagi kamchiliklarning mavjudligi ham ko'zga tashlanadi: sinf-dars tizimida o'qituvchining har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanish imkoniyatining chegaralanganligi; u yoki bu o'quv predmetini o'qitish jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish natijasida, ta'lif jarayonining samaradorligiga putur yetishi; sinfdagi barcha o'quvchilar ham o'quv materiallarini o'zlari mustaqil o'zlashtirish imkoniyatiga ega emasliklari nazarda tutiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi" to'g'risidagi Farmoni.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild./ tuzuvchilar: Jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2015, 368-b.
3. Qalandarova M.K. O'quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lif jarayonini tashkil etish mexanizmlari// Monografiya. – T.: Fan nashriyoti, 2019. – 97-b.
4. Anyon, Yolanda; Nicotera, Nicole; Veeh, Christopher A. Contextual Influences on the Implementation of a Schoolwide Intervention to Promote Students' Social, Emotional, and Academic Learning // CHILDREN & SCHOOLS Том: 38 Выпуск: 2 Стр.:81-88 Опубликовано: APR 2016 <http://webofscience.com>

---

**Bosh muharrir:**  
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Bosh muharrir o'rinnbosari v.v.b:**  
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

**Mas'ul kotib:**  
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

**Bosh dizayner – badiiy muharrir:**  
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**Tahrir hay'ati:**  
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO'RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug'bek INOYATOV,  
G'ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola  
MO'MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy  
IBRAGIMOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV,  
Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat  
MAHKAMOV, Alisher UMAROV.

**Jamoatchilik kengashi:**  
Dilshod KENJAYEV, Nargiza RAXMANKULOVA, Shaxnoza XALILOVA,  
Muhammadjon QURONOV, Islom ZOKIROV.

**Tahririyat manzili:**

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
E-mail: xalq\_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lion qilingan maqolalardan  
olingen matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagи 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. \_\_\_\_\_. -y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.  
Shartli b.t. 12,0. Adadi \_\_\_\_\_. nusxa. – buyurtma.  
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2021.